Kreativlik tushunchasi ilk bor iqtisod sohasida 2000 yili "Business Weyek" jurnalida tilga olingan. So'ngra, Jon Xokins o'zining 2001 yili nashr qilingan "Kreativ iqtisod" nomli kitobida "kreativ sanoat" mazmunini tahlil qilib beradi.

Ko'pgina kishilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat kishilar aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni shu o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, bu borada pedagoglar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman, deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir" [12; 4].

Nuayye Didye "kreativ tafaakur bir vaqtning o'zida ham alohida xodimning tafaakur shakli va butun jamoaning faoliyat prinsipi bo'lishi mumkin bo'lgan metodikaning birligi" sifatida ta'riflash bilan birga kreativ tafakkur quyidagi jihatlari bilan tavsiflanishini qayd etadi:

an'anaviy rakursni o'zgartirib, vaziyatga oshqa bir tomondan yondashish;

doimiy qo'llanilib kelingan yondashuv va ishlab chiqilgan qarorlardan voz kechish;

qo'yilgan savollarga nostandart javob topish;

turli yondashuvlardan foydalanish va natijada yangi mahsuldor g'oyalarni ishlab chiqish.

Rossiyalik pedagog V.V.Moroz kreativlikni "hozirgi davrning yangi g'oyalari yaratuvchanligi bilan tavsiflanuvchi muhim komponenti" sifatida ta'riflaydi va u insonlarga insonlarga jamiyatdagi doimiy o'zgarishlarga moslashishi uchun xizmat qilishini ta'riflaydi. Uningcha, jamiyat doimiy o'zgarishda, ayniqsa so'nggi davrlarda o'zgarishlar o'ta tezkor, insonlar esa taraqqiyot natijasida yuzaga keladigan muammolar kreativ yechimlarini topishlariga yordam beradi.

Kreativlikning barcha insonlar uchun "normal" holat ekanligi borasidagi qarashlar juda ko'plab bahslarga sabab bo'lmoqda. Agarda kreativlik bu insonlar uchun normal holat bo'ladigan bo'lsa, demak u barcha insonlarga xos bo'lmog'i ham lozim. bunday qarashlarga qo'shilgan K. A. Torshina kreativlikni yana shaxsiy sifatlariga bog'laydi. YA'ni "Kreativlik – normal holat, ammo uning namoyon bo'lish darajasi shaxsiy sifatlar va muhit tavsifiga bog'liqdir.

Xuddi shunga o'xshash qarash T.V. Galkina va L.G. Xusnutdinovalar ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Ularning fikricha ijodkorlikka uchun yaratilayotgan muhit ta'sirida kreativlik ko'rsatkichlari o'sib boradi. Kreativlik o'sib borishi bilan birga uning namoyon bo'lishi shaxsiy ustanovka mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq bo'lib boradi. YA'ni kreativlik uchun xizmat qiluvchi motivatsiya tashqi ta'sir emas, shaxsiy xususiyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aslonova O.P. Quick Thinking and Resourcefulness and Its' Forming in Learning Process//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES). –Vol. 4 No. 6, 2017. – P. 66
2. Аслонова О.П. Бошланғич синф ўқувчиларида тафаккур тезлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2018. – №3 – Б. 143-145.

Aslonova O.
Qarshi DU dotsenti,
Boyqulova N.
Qarshi DU Pedagogika instituti 1-bosqich magistranti
(Qarshi, Uzbekistan)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ANALITIK
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini analitik tafakkurini rivojlantirish zarurati masalasiga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: tafakkur, analitik tafakkur, tafakkur darajalari, turlari

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на необходимости развития аналитического мышления учащихся начальных классов.

Ключевые слова: мышление, аналитическое мышление, уровни мышления, типы.

Annotation. This article focuses on the need to develop the analytical thinking of primary school students.

Key words: thinking, analytical thinking, levels of thinking, types.

Mamlakatimizda ham yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirish jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ana shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosiy vazifa sifatida"¹ belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini shakllantirishda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi, samarali ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Pedagogik ensiklopediyalarda tafakkur deyilganda "real predmet va hodisalarni muhim xossalari, munosabat va bog'liqligini umumiy holda aks ettiruvchi, insonning bilish faolligi jarayonidir" deb tushuniladi. Shunday qilib, tafakkur-inson ongiga reallikni aks ettiruvchi, o'rganilayotgan obyektlar o'rtasida o'rnatilgan bog'liqlik va munosabatlarni xossalari hamda mohiyatini ochib beruvchi, umumlashtiruvchi bo'lgan eng yuqori jarayon ekan. [1;2-b].

Tafakkur jarayonida ichki va tashqi ta'sirlar asosida inson miya qobig'ida vaqtinchalik nerv bog'lanishlari paydo bo'ladiki, ular tafakkur jarayonining fiziologik mexanizmlaridir. Inson tafakkurining asosiy o'ziga xosligi - u tasodifiy hollardan alohida, real bog'lanishga asoslangan holatlarni nafaqat ajaratadi, balki undagi muhim zaruriy bog'liqliklarni aniqlash qobiliyatiga ham egadir.

Shu bilan birga tafakkurning yoyiqilik darajasi ko'ra tafakkur quyidagilarga bo'linadi: diskursiv va intuitiv. Diskursiv (analitik) tafakkur - idrok etish emas, balki mantiqiy fikrlashdir.

Analistik tafakkur vaqtga nisbatan yoyilgan bo'lib, aniq ifodalanish bosqichlariga ega, u fikr yuritayotgan insonning ongida tasvirlanadi, ifodalanadi. Intuitiv tafakkur – bevosita idrok etishga va bevosita obyektiv dunyoni predmet hamda hodisalarga ta'sirini aks ettirishga asoslangan tafakkur. Intuitiv tafakkur - aniq ifodalangan bosqichlarga ega bo'lmasdan, minimal anglangan bo'lib, tez borishi yoki tez o'tishi bilan tavsiflanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik tafakkurini shakllantirish o'quvchilar aqliy taraqqiyotida bir qator ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bunda o'quvchi o'z oldiga ma'lum maqsadlarni qo'yib tahlil qili olgan holda harakat qila boshlashga intiladi. Ya'ni o'zni kelganda "vaqtni bekorga o'tkazish" emas, balki undan unumli foydalanish, "vaqtdan yutish"ga harakat qila boshlaydi. O'quvchining fikrlash darajasi tahlil qilish natijasida qat'iylasha boshlaydi. O'quvchi muhim voqealar, yangi g'oyalar va kashfiyotlar, eng avvalo inson ongida paydo bo'lishini anglay boshlaydi. Analitik tafakkurning shakllana borishi hayotiy tajriba yuzaga kelishiga zamin yaratadi. O'quvchi o'zining amaliy tajribasi va o'zgarish tajribasi, muvaffaqiyatlar va xatolar, oldindan egallangan bilimlar va yangi bilimlar orasidagi farqlarni anglay boshlaydi va bundan chiqargan xulosalari asosida muvozanat saqlashga urinadi.

Analitik tafakkurga ega o'quvchi o'z fikrlarida imkon qadar aniqlikka intiladi. Bunday holat boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaxlit ko'rinishidagi detallar mayda bo'laklardan tuzilganligini anglay boshlashida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida analitik tafakkurini shakllanishi natijasida do'stlari, atrofdagilar bilan til topa olish xususiyati yuzaga kelib shakllana boshlaydi. O'quvchi suhbatdoshining kasb-korlari, bajaradigan ishlarining mazmun-mohiyatini anglab yetishga urina boshlaydi. Unda bu ishlarining mohiyatini bilishga qiziqish va ularning qanday bajarilishini tasavvur qilish extiyoji yuzaga keladi. YA'ni bola aniqroq fikrlay boshlagach, rassom bilan rasmlar, yozuvchi bilan kitoblar, bog'bon bilan daraxtlar to'g'risida suhbat qilishni o'rgana boshlaydi. Suhbatdoshining qiziqishlari xususida o'ylashga va o'zi ham bu qiziqishlar haqida bilishga intiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida analitik tafakkuri shakllana borganida sayin o'zi uchun yangilik bo'lgan holatlarni tezroq o'rganishga, ularning mazmun va mohiyatini anglashga intiladi. Atrofdagi buyumlar, kundalik foydalaniladigan jihozlar, asbob-uskunalarining inson hayotidagi zaruratini anglashga intiladi. Ularning keraklilik darajasini, ahamiyatini his etadi. Shu bilan birga bularning hammasi inson qo'li bilan yaratilayotganini tezroq anglay boshlaydi. Bu esa o'quvchi uchun insonning, ya'ni o'zining tabiatda kim ekanligini anglash yo'lidagi dastlabki muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aslonova O.P. Quick Thinking and Resourcefulness and Its' Forming in Learning Process//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES). –Vol. 4 No. 6, 2017. – P. 66
2. Аслонова О.П. Бошлангич синф ўқувчиларида тафаккур тезлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2018. – №3 – Б. 143-145.
3. Примов Р. Т., Мурадов М. К. Профессиональное мастерство учителя музыки //Евразийский научный журнал. – 2017. – №. 4. – С. 198-199.

Latipova Dildora Madiyorovna
Xorazm viloyati FVB HFXO'M, o'qituvchi,
Atajanova Muyassar Atajanovna
Xorazm viloyati FVB HFXO'M, o'qituvchi
(Urganch, O'zbekistan)

EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH ZAMON TALABI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilar va talabalarda ekologik madaniyatni shakllantrish, tabiatimiz holatining hamda suv manbalari ifloslanishining oldini olish, Respublikamizda atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish muammolari va barcha uchun dolzarb ekologik muammo hisoblanayotgan Orol muammosi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: inson va tabiat, atrof-muhit tushunchasi, toza suv manbaalari, Orol muammosi, tashabbuskorlik, dolzarb ekologik muammolar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование экологической культуры у школьников и студентов, предотвращение загрязнения природы и водных ресурсов, охрана окружающей среды в республике, рациональное использование природных ресурсов и проблема Аральского моря, являющаяся актуальной экологической проблемой. для всех.

Ключевые слова: человек и природа, концепция окружающей среды, чистые водные ресурсы, проблема Аральского моря, предпринимательство, актуальные экологические проблемы.

Annotation. This article discusses the formation of ecological culture in schoolchildren and students, the prevention of pollution of nature and water resources, the protection of the environment in the Republic, the rational use of natural resources and the Aral Sea problem, which is a pressing environmental problem for all.

Key words: man and nature, the concept of the environment, clean water resources, the Aral Sea problem, entrepreneurship, current environmental problems.

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar hamma davrlarda ahamiyat kasb etgan. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ibtidoiy jamoa tuzumi odamlari ham o'zlarini tabiatning bir bo'lagi sifatida his etib yashaganlar. Lekin davr o'tishi bilan bo'ysundirishga bo'lgan harakatlar tobora avj olib bordi va tabiat ustidan qilingan bu "g'alaba" insoniyat falokati ekanligi anglab yetildi. Toza suv, beg'ubor osmon, ko'plab yer osti boyliklari, xilma-xil o'simlik va hayvonot dunyosi, go'zal tabiat manzaralarini asrab-avaylashga bo'lgan talab va ehtiyoj kuchayib bormoqda. Lekin ba'zan bu kabi yaxshi niyat bilan qilingan samarali harakatlar ayrim nopok kimsalarning nojo'ya harakatlari tufayli barbod bo'lmoqda. Asrlar davomida buyuk allomalarimiz tabiat va inson o'rtasidagi aloqadorlikka alohida urg'u berganlar va insonni yuksak kuch - qudrat, aql-idrokka alohida urg'u berganlar va insonni yuksak kuch-qudrat, aql-idrok sohibi bo'lmish tabiatning bir bo'lagi sifatida ta'kidlab o'tganlar.

Demak, inson hech qachon tabiat va uni o'rab turuvchi tabiiy muhitdan ajrala olmaydigan jonli mavjudotdir. U ongining yuksakligi ijodiy faolligi bilan boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. Ma'lumki taraqqiyot fan-texnikaning yuksak darajada shakllanishiga olib keldi. Natijada tabiiy muhit inqirozi, ijtimoiy muhit falokati singari tushunchalar tez-tez olinadigan bo'lib qoldi. Tabiat qonunlarini bilgan inson tabiatni o'rgandi, bildi, qurdi, yaratdi, bo'ysundirdi. Odamzod doimo tabiat qo'ynida faoliyat ko'rsatdi, u bilan uzluksiz munosabatda bo'ldi. Bu faoliyat ayrim hollarda oqilona tashkil etilmadi, u bilan to'g'ri munosabat o'rnatilmadi, natijada inson o'zi va tabiat uchun muammolar keltirib chiqardi. Mazkur muammolardan biri ekologik muammodir. Ekologik muammolar o'z ichiga tabiat, inson va jamiyatdagi barcha ekologik jarayonni qamrab oladi. Ko'riniyaptiki, ekologik ma'suliyat umuminsoniy xarakterga ega bo'lib yetarli hayotni halokatdan asrab qolish demakdir.

Tabiat holatining yomonlashuvi va suv manbalarning ifloslanishi, o'rmon daraxtlarning kesilishi, katta-katta hududlarning sanoat va maishiy chiqindilar axlatxonasiga aylanishi oxir oqibatda odamlarning tartib asosida boshqarilmaydigan nooqilona va uzoqni ko'ra bilib ish tutmagan faoliyatining yuzaga kelishi insoniyatning oldiga murakkab savollarni qo'ymoqda. Agar inson tabiatga nisbatan shunday tajavuzkorona munosabatda bo'laversa, uning o'zi bu dunyoda yashab qolarmikan?

Ma'lumki, biz butun jahon ekologik halokatlar muammosi deb e'tirof etilayotgan hududda yashab kelmoqdamiz. Global va mintaqaviy muammolar girdobiga allaqachon tushib ulgurdik.

Global muammola - iqlim o'zgarishi, ozon omili va Orol muammosi.

Mintaqaviy muammolar - Orolbo'yi muammosi, suv resurslaridan foydalanish mintaqaviy muammosi, atrof-muhitning transchegaraviy ifloslanish muammosi, cho'llanish, yuqumli va boshqa kasalliklarni tarqalish xavfi va hakoza.

Xorazm vohasini, yuqorida sanab o'tilgan muammolarning birortasi chetlab o'tgani yo'q.

Xorazm vohasi Amudaryoning quyi oqimida joylashgani uchun ko'llar va suv xavzalari diyori bo'lgan. Ko'llar va suv havzalari, voha tabiatini bir maromda saqlab turishga xizmat qilgan. Birinchidan, ob-havo namligi bir maromda barqaror bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan yer osti suvlari darajasi ham bir yo'sinda bo'lishini ta'minlagan. Eng asosiysi hududga mos ravishda bioxilmaxillikning yuqori darajada bo'lishi o'simlik va hayvonot olaminining genofondini tabiiy holda saqlanib kelinishiga sabab bo'lgan hamda tabiatdagi barcha jonzodlarning o'zaro ozuqa va avqatlanish zanjirining bir maromdagi balansi ta'minlangan.

Biroq o'tgan asrning oxriga kelib Orol muammosining yuzaga kelishi yuqoridaga barqaror tabiiy holatni qisman izdan chiqardi.

Dengiz chorak asr davomida o'z akvatoriyasini butunlay yo'qatdi, uning o'rnida 5 mln. gektar maydonni egallagan tuzli-qum sahro paydo bo'ldi.

Orol bo'yi hududida vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Aholi o'rtasida yurak-qon tomiri, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sili, astma, bronxit) ko'paydi. Hududda kamqonlik kasalligi 60-yillarga nisbatan deyarlik 20 marta oshgani kuzatilgan.

Ekologik tanglik Orol bo'yi tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosiga ham katta ziyon yetkazdi.

Dengizning qurigan hududlariga saksovul, qandim, cherkez, yulg'un kabiy sho'r tuproq va qumda o'sadigan o'simlik dunyosi urug'lari sepilmoqda va ko'chatlari o'tkazilmoqda. Orolning yarmidan ko'proq qismida o'rmonzorlar paydo bo'lmoqda, bu esa hayvonot olamiga makon hisoblanib, bioxilma- xillikni hosil qiladi.

Sayyoramizda ekologik vaziyatning keskinlashib ketishi ushbu muammoga munosabatni tubdan o'zgartirishni taqozo qilmoqda. Insoniyatdan kelajagi uchun butun dunyodagi kishilarning millatidan, irqidan sinfiy mavqeidan qat'iy nazar, shoshilinch amaliy chora tadbirlar ko'rishni talab etmoqda. Global ekologik muammolarni hal etish uchun hozirgi bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy tizimga qaramasdan katta va kichik davlatlarning birgalikda harakat qilishi talab etiladi. Barcha mamlakatlarning kuch-harakatlarini birlashtirmay turib qit'amizdagi atrof-muhitni saqlab qolish va sog'lomlashtirishdek muhim muammoni uzil kesil hal qilib bo'lmaydi. Yer yuzasining ko'pgina joylarida cho'llashish jarayoni yer yonish darajasiga kelib qoldi, osmondan olovli bo'lmasa-da, kislotali yomg'irlar yog'moqda, tutun tufayli osmonning o'zini ham ko'rib bo'lmaydi. Milliy doirada hal qilib yetarlicha uzoqni ko'rmay ish qiladigan bo'lsak, qit'a o'z vaqtida mushtarakligini anglab yetishimiz qiyin kechadi. Milliy munosabatlar, ekologik maqsad va maslaklar chorrahalarida tutashmoqda. Chunki havo va suv havzalari shartli holdagina ma'muriy chegaralarga bo'linadi. Bir mamlakatda tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqil Respublikamiz oldida tabiatni muhofaza etish va uning boyliklaridan oqilona foydalanish kabi buyuk va olijanob vazifalar turibdi. Ayniqsa, hozirgi kunda inson uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning mehnat qilish qobiliyatini saqlagan holda uzoq umr ko'rishini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Xolliyev. Ekologiya. Toshkent. "Talqin" - 2004y.
2. A. To'ztayev. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. "O'qituvchi" - 2001y.
3. Abirqulov K.N., Rafiqov A., Xajimatov A.N., "Ekologiya", O'quv qo'llanma.
4. Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari" mavzusidagi 2-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi to'plami 2020-yil 25-iyun. Farg'ona 233-236-bet

INTERNET MA'LUMOTLAR:

1. [www. "Ziyonet".uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. www.google.uz tarmog'idagi ma'lumotlar.

Qilicheva Feruza Baxranovna
Shofirkon tuman 5-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi,
Shamsiyeva Zarina Sulton qizi
Shofirkon tuman 11-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi
(Buxoro, O'zbekiston)

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA LOY VA PLASTILINDAN O'YINCHOQLAR
YASASHNING XUSUSIYATLARI**

Rezyume. *Maqolada maktabgacha ta'lim muassasasida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashning xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, plastilin, loy, o'yinchoq, mashg'ulot.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'yinchoqlar yasash katta ahamiyatga ega. U maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur xususiyatlar ko'rib idrok etishni, xotirani, obrazli fikrlashni rivojlantirishga, qo'l mehnati ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam beradi. O'yinchoqlar yasash tasviriy faoliyatning boshqa turlari singari, estetik didni shakllantiradi, go'zallikni his qilishga, uning rang-barangligini tushunishga o'rgatadi.

Bolalar bog'chasida loydan va plastilindan o'yinchoqlar yasash to'g'risida gapirilganda, tasviriy faoliyat, bu faoliyat jarayonida bolalar tevarak-atroflaridagi voqelikni aks ettirishi, loy yoki plastilindan foydalanib elementar o'yinchoqlar yaratishi nazarda tutiladi.

Bolaning hatto eng oddiy o'yinchoqni yasashi ham ijodiy jarayondir. Chunonchi, loyning sharsimon bir bo'lagi ham jajji go'dakda koptok, apelsin, olma, uchlari birlashguncha dumaloqlangan loy ustuncha esa halqa, teshikkulcha bo'lib tuyuladi. Ish vaqtida bola loyni turli shaklga solib o'ynar ekan, uning yumshoqligidan, hajmliligidan zavqlanadi, o'zi yasagan shaklga qarab xursand bo'ladi. Shu bilan birga bola loy va plastilinning turli xossalari anglab yetadi, hajmli shakl, predmetning tuzilishi hamda nisbatlari bilan tanishadi, qo'llari aniq harakatlantirish ko'zi bilan to'g'ri mo'ljal olishni o'rganadi, unda konstruktiv qobiliyatlar shakllanib boradi. Agar faoliyatning bu turi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, loy va plastilindan turli o'yinchoqlar yasash bolalarning sevimli mashg'ulotiga aylanib qolishi mumkin.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarida tarbiyachilar oldiga: bolalar ijodkorligini rivojlantirish, ularda tasviriy hamda texnik ko'nikmalar hosil qilish, mazkur faoliyat turiga qiziqish uyg'otish vazifalari qo'yiladi. Bolalar bog'chasidagi ta'lim tizimi bolalarni maktabga tayyorlash maqsadini ko'zlagan holda tashkil etiladi.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash ham rasm chizish kabi estetik tarbiya tizimida muayyan o'rin tutadi hamda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni va boshqa fazilatlarini tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlar siz ijtimoiy faol shaxsning dastlabki asoslarini shakllantirib bo'lmaydi. Loydan va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarida mazkur fazilatlarining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunonchi har qanday predmetning hajmi bor va bola uni har tomondan ko'rib idrok etadi.

Predmetni idrok etish asosida bog'cha bolasining ongida obraz shakllanadi. U o'yinchoqlar yasashda o'zining real voqelikdan olgan bilimlariga suyanadi, bola rasm

chizishdagi yoki applikasiyalar yasashdagi kabi predmetning bir tomonini emas, balki barcha tomonini aks ettiradi. Chunki unga endi tasviriy faoliyatning boshqa turlarida zarur bo'ladigan shartli ifodalash usulidan foydalanishga to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash rasm chizish, applikasiya ishlashga qaraganda ikki qo'l bilan siyalab tabiiy sezishni ko'proq rivojlantiradi va takomillashtiradi. Qo'llarning faol harakati esa shaklni aniqroq chiqarishga olib keladi. Shu tufayli bolalar tasvirlash usullarini tezroq o'zlashtirib oladilar va kattalar ko'rsatmasiz mustaqil ishlay boshlaydilar, bu esa o'z navbatida bolalar ijodkorligining tez rivojlanishiga olib keladi. Tasvirlash usullarini bolalar tez o'zlashtirishi ularga applikasiya yoki rasm chizishga qaraganda ertaroq ikki-uch figuradan iborat syujetli o'yinchoqlar yasash imkonini yaratadi. Chunonchi, rasmga yirik rejadagi predmet varaqning pastki qismida hamda kattaroq qilib tasvirlanadi. Loy yoki plastilindan yasalgan figuralar esa real mavjud fazoda taxtacha yoki loy supacha ustiga joylashtiriladi.

Faoliyatning barcha turlari bolani tasviriy ifodaning yangi usullarini izlashga mustaqil yondashishni shakllantiradi. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash jarayonida bolalarga kerakli narsalarni o'rgatishda yangilikni izlash qobiliyati yaxshiroq rivojlanadi. Chunki bunda shakllarni bevosita barmoqlar, yog'och qalam bilan to'g'rilash, botiq joylariga loy yopishtirish yohud shaklga halal berayotgan ortiqcha loylarni sidirib tashlash bilan xatolarni tuzatib borish imkoni bo'ladi. Bunda bola shaklni bir necha marta qayta yasab ko'rish mumkin. Rasm yoki applikasiyada bunday qilib bo'lmaydi.

Tasviriy faoliyatning har xil turlari bolaning badiiy didini shakllantiradi. Agar rasm va applikasiya chiziqlarning aniqligi hamda ranglarning yorqinligi orqali bolalarni estetik tarbiyalashga ta'sir ko'rsatsa, o'yinchoqlar yasashda predmetning hajmli shakli, yumshoqligi va ritmi birinchi o'ringa chiqadi. Mana shu uchta komponentning barchasi real fazoda mavjud bo'lib, bolada predmetlar plastik shaklining go'zalligini, qismlarining nisbatlarini tez idrok etish va bilib olish ko'nikmasini shakllantiradi, ularda tevarak-atrofdagi voqelikka diqqat-e'tibor va qiziqishni rivojlantiradi.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash faoliyatning bir turi sifatida rasm chizish yoki applikasiya tuzishga qaraganda bolalarni fazoda mo'ljal olishga, qator matematik tushunchalarni o'zlashtirishga tezroq o'rgatadi. Chunonchi, kichik guruhdagi bolalar to'siq uchun ustunchalar yasashadi, bola ularni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yadi, qator qilib teradi, ulardan uycha atrofiga devor yasaydi, nechta ustuncha yasaganini sanab chiqadi va hokazo. Katta yoshli bog'cha bolalari odam figurasini yasashda uning a'zolarini qayerga birlashtirish to'g'risida o'ylaydilar. Bunda ular figura qismlarini bir-biri bilan va butun figura bilan bevosita solishtirib, taqqoslab ko'radilar, ularning katta-kichikligini, o'lchamlarini (uzunligini, qalinligini) aniqlaydilar. Xolbuki, rasm chizilgan vaqtda bu ishlarni faqat ko'z bilan chamalab amalga oshirish mumkin.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash jarayonida bolalarda mehnat malakalari va yeng shimarib ishlash, ish o'rnini ozoda va tartibli saqlash, aylanadigan doirali dastgohdan foydalanish odatlari hamda predmetni hamma tomoniga ishlov berish zarurligi haqidagi tushuncha hosil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sakulina N.P., Kamarova T.S. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat. - T., "O'qituvchi", 1996.

Rasulova Aziza Mirbaxramovna
Senior Lecturer
Tashkent State Pedagogical University
(Tashkent, Uzbekistan)

**PEDAGOGICAL MECHANISMS OF EDUCATION
OF STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES**

Annotation. *This article describes the pedagogical means of educating students with intellectual potential through the formation of the idea of respect for national values, building a democratic state based on the principle of loyalty to national values, building a civil society.*

Keywords: *student, religion, tolerance, democracy, state, civil society, intellectual, professional, history, partnership.*

At the heart of the ongoing reforms in the field of education and science of the Republic of Uzbekistan are more stringent requirements for the training of competitive personnel in terms of scientific and intellectual potential, spirituality, mental ability and social and moral qualities. One of them is the student's effective mastery of educational activities based on universal values.

In the Republic of Uzbekistan, one of the priorities of state policy is to bring up the younger generation as a harmoniously developed person. Addressing the Oliy Majlis on January 24, 2020, the President of the Republic of Uzbekistan addressed the issue of the younger generation: Therefore, on the basis of the program idea "From national revival to national development", it is a great honor to educate young people in the spirit of devotion to the motherland, the formation of initiative, dedication, moral qualities. plays an important role in the development of perfection as a citizen.

The Concept for the Development of Higher Education in the Republic of Uzbekistan until 2030 focuses on achieving new results in the national education system, focusing on the education of the younger generation: "Serves as a basis for the development of In the process of reforms to constantly increase the efficiency of the education system at the level of developed countries, to bring up a highly spiritual and educated, mature, well-rounded, physically healthy, mentally mature person, to develop their intellectual, professional, spiritual and moral qualities It is important to grow into a mature cadre. The provision of textbooks in higher education institutions, the successful use of information and communication and innovative educational technologies in the educational process, the inculcation of universal values in the minds of students are developing depending on the professional potential of the teacher, his pedagogical skills. Technological modernization of all stages of education and upbringing, all the important tasks for the development of these requirements are being carried out within the framework of the requirements of the reform in the strategic direction of the education system, based on the current modern conditions.

The upbringing of a student is an extremely complex pedagogical and psychological process of raising his spiritual consciousness. So, it is known from all countries that the

upbringing of the younger generation, its organization, its content is important in determining not only the maturity of the individual, but also the development of society.

In order to acquire knowledge in all areas of spiritual values, the acquisition of knowledge, skills and abilities in the teaching of social sciences and humanities requires the use of specific forms, methods and tools to cultivate a sense of patriotism and moral principles based on the use of national values.

From a pedagogical point of view in teaching students, the general laws in the field of didactics are manifested in a unique way in the study of various academic disciplines. In the educational process through didactic education, the educational components of education on the basis of national values (knowledge, skills, abilities), educational (patriotic), developmental (development of students as a harmoniously developed person), professional training (development of pedagogical skills) self-preparation). In studying all this, the foundations of national ideology and spiritual values are applied. It defines the responsibilities of the teacher and the learner in this regard. The current global changes require didactics as well as innovations and changes in line with modern requirements. In this regard, spiritual values are recognized in all countries as a great pillar of society and play an important role in the full development of society for the younger generation.

In the historical development of the process of pedagogical education in the department of "Theory of Education" in the theory and practice of education the methodological bases of the educational process, the dependence of security, tranquility and well-being in society on human education, rarity and uniqueness of man, national idea, pedagogical foundations of national ideology. The role of the scientific heritage of our ancestors in the development of science, consciousness, persuasion in education, its connection with human life and activity, the humane and democratic nature of education, conscience, will, determination and trust in education, harmony of discipline, morality and duty, individual upbringing and continuity, the ability to set a positive example in the team, the task of educating the individual through the team plays an important role.

The development of spiritual values and the content of pedagogical culture in students requires high pedagogical skills from the teacher in order to inculcate them in their minds. In this regard, the teacher of higher education, using the unique potential of pedagogical skills in educational activities, interacts with students, communicative and organizational, creative skills, communication culture, pedagogical techniques, tact and pedagogical delicacy, didactic, observation, speech technique, reputation, future. to be able to predict, to concentrate and to spend it. Educational activity in higher education plays an important role in the development of spiritual values in students. During this period, they develop an interest and tendency to pedagogical professional activity. Necessary knowledge, skills and competencies on the methods of pedagogical work of pedagogical activity are provided.

It is important to increase the interest of students in the minds of spiritual values, to integrate them with the content and essence of the ongoing reforms in society in the field of education. Therefore, the main essence of a teacher's pedagogical activity should be the development of students' attitudes towards spiritual values. The task of developing students on the basis of criteria such as national outlook and faith, nourished by the advanced

achievements of the time, based on intellectual consciousness, high spirituality, centuries-old traditions and universal values, also plays an important role.

In conclusion, I would like to emphasize that the role of national values in the scientific heritage recognized by our ancestors is invaluable in the development of the student. This means that the deeds of our ancestors in the interests of the people and their pain have been respected in all troubles and have played an important role in shaping the spiritual image of the individual. In particular, patriotism in the hearts of our people, ancient myths and legends praising the nation, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Babur's leadership, courage and skill, his work for the development of the nation in all periods, does not lose its importance. It is important to educate students as spiritually mature individuals based on national values. The task of educating the student in the minds of the scientific foundations of national values on the basis of interesting conversations and stories plays an important role.

REFERENCES:

1. Халқ сўзи.: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” 2020 й. 25 январь №-19 сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида 2019 йил 8 октябрь, ПФ-5847-сон
3. Амир Темур ўғитлари: (тўплам): Тузувчилар: Б. Ахмедов, А. Аминов. – Т.: Наврўз, 1992. – 64 б.
4. Давлетшин М.Г. Қобилият ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.
5. Кукушин В.С. Дидактика. – М.: Ростов на Д., 2003. – 349 с.
6. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент: Иқтисод молия, 2012. – 424 б.
7. Утебаев Т.Т. Қорақалпоғистонда XX аср иккинчи ярми ва XXI аср бошидаги таълим-тарбиявий фикрлар ривожланиши: Дис.... пед. фан. док. – Т., 2016. – 323 б.
8. Abdullaeva B. S. et al. The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. 2. – С. 2706-2714.
9. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
10. Tursunboyevich Ozod Abduganiev. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2021, Volume: 11, Issue: 3
11. Ibragimov, X., & Sh, A. (2008). Pedagogika nazariyasi (darslik). Т.: Fan va texnologiya, 288.
12. Ибраимов, Х. И. (2019). Теоретические аспекты социально-психологической адаптации студентов-первокурсников к обучению в вузе. Вопросы науки и образования, (26 (75)), 12-16.

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li
UrDU, o'qituvchi,
Abdullayeva Rayxon Atanazarovna,
Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi, uslubchi,
Yaqubova Nodira Ruslanovna
UrDU, 1-bosqich magistranti, 24-son maktab o'qituvchisi
(Urganch, O'zbekistan)

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH- GURUHLARDA ISHNI TASHKIL QILISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad, uning afzaliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari, ta'limning guruhli shaklida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlariga to'xtalib o'tilgan va yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, dars samaradorligi, guruh bilan ishlash, faollik, tashabbuskorlik, interfaol dars.

Аннотация. В данной статье рассматривается предполагаемое назначение новой педагогической технологии, ее преимущества, принципы повышения эффективности урока, возможность достижения педагогических целей в форме группового обучения.

Ключевые слова: педагогическая технология, эффективность урока, групповая работа, активность, инициатива, интерактивный урок.

Annotation. This article discusses the expected purpose of the new pedagogical technology, its advantages, the principles of increasing the effectiveness of the lesson, the possibility of achieving pedagogical goals in the form of group education.

Key words: pedagogical technology, lesson effectiveness, group work, activism, initiative, interactive lesson.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Bu borada ancha-muncha tajriba to'plagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolotlavchi omil ekanligini ta'kidlab, pedagogik jarayonlarni ilmiy loyihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta'lim tarbiya jarayonini amaliyotga aniq va ketma-ket tatbiq qilish xususida o'z fikr-mulohazalarini ommaning diqqat-e'tiboriga havola etayotir.

Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad nima, uning afzaliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul.
2. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi.
3. Ko'p tarmoqli.
4. Sodda va oson.

5. Esda qolishi kuchli.
6. Bilim boyligini oshiradi.
7. Vaqtdan yutamiz.
8. Dars mashg'ulotimiz qiziqarli o'tadi.
9. Darsning samaradorligini oshiradi.
10. O'quvchi va talabalarning dunyoqarashni oshiradi.
11. O'quvchi va talabalarning tafakkurni rivojlantiradi.
12. O'quvchi va talabalarning diqqat-e'tiborini tortadi.
13. Har bir o'quvchi bilan individual munosabat paydo bo'ladi.
14. Xotirani kuchaytiradi.
15. Izlanishga chorlaydi.
16. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Bizning ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimiz, sinf-dars tizimi doirasida, ta'limni tashkillashtirish shakllarining quyidagilarida o'z ifodasini topadi:

- frontal ish barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash;
- guruhlarda ishlash: statik juftliklarda ishlash; (guruhlarda ishlash);
- guruhlara ish; individual ishlash.

Ushbu tashkiliy shakllarning har biri jamoaviy va individual ta'limni birgalikdagi olib borishni turiligi, ta'lim oluvchilarning mustaqillik darajasini turiligi, biz tomondan o'qitish jarayonini boshqarishni turiligi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish paytida biz guruh bo'lib ishlashni tanlaymiz.

Lekin bunda, ta'lim berish usullariga bog'liq holda, uni qo'yilgan ta'lim maqsadlariga, rejalashtirilgan natijalarga va boshqalarga mos kelishi hisobga olinadi. Guruhlarga bo'linib ishlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, dolzarb pedagogik, psixologik va ijtimoiy maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Ta'limning guruhli shaklida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari.

Eng avvalo, ta'limning guruhli shakli «ta'lim beruvchi- ta'lim oluvchi» dialogidan voz kechishini va «ta'lim beruvchi-guruh- ta'lim oluvchi» ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlarga bo'linadi va ularning har biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli biz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam aloqa o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati shakllanadi, bu esa o'quv- bilish jarayonini faollashtirishga, ularda impatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;

- ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

- guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi:

- qobiliyatli va iqtidorli bolalar, ularni «maqtanganlik»larida ayblashlaridan cho'chimasdan o'z qobiliyatlarini ko'rsatishlari mumkin, ular guruhda nafaqat ta'lim beruvi rovida bo'lishlari, balki ta'lim oluvchi rovida ham bo'lishlari mumkin va ta'lim beruvchi rovidagi o'z o'rtoqlari tomonidan baholanishi, raqib bo'lmasdan ulardan o'rganishi mumkin;

- o'rtacha qobiliyatga ega yoki harakteri bo'yicha qo'rqoq talabalar o'z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatni oladilar. Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan, qo'rqishdan xoli bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uygotish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, qo'rqoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi.

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikda boyitishni ta'minlaydi: faqatgina kooperastiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish, umumiy mahsulot olish - muammoni echish imkonini beradi. Shuning uchun guruhda ta'lim berishda, biz jamoaviy muhokama qilishdan, o'zaro konsultastiyalar berishda maksimal foydalanamiz.

Guruhlarda ishlash, atrofdegilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «*men va ular*» dan «*biz*»ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Селевко Г.К. “Современные образовательные технологии.” – М., 1998 г.
2. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: – Sharq, 1997-y.
3. Yangi pedagogik texnologiyalar (ma'ruza matni). Toshkent-2009-y.

INTERNET MA'LUMOTLAR:

1. [www. "Ziyonet" .uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. www.google.uz tarmog'idagi ma'lumotlar.

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Boymurodova Dilafruz Dilshoq qizi
 “Sharq tillari” fakulteti magistranti
 Samarqand davlat chet tillar instituti
 (Samarqand, Uzbekistan)

YAPON TILIDA INKOR GAPLARINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotasiya. Ushbu maqola doirasida yapon tilini o'rganish jarayonida inkor gaplarning sintaktik xususiyatlari va ularni qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Inkor gaplar, inkor kategoriyasini, sintaktik xususiyatlar, aktant-predikat, predikativ atribut, subyektiv atribut.

O'quv muassasalarida yapon tili har tomonlama chuqur o'rgatilib borilmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'rganishda yapon tili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yapon tilini va tilning konstruksialar tizimining shakllanishi hamda o'rganilishini alohida tadqiq etish bugungi kun odidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yapon tili gramatikasida gapda inkorning namoyon bo'lishiga kelsak, ko'rinib turibdiki, inkor kategoriyasining namoyon bo'lishining tegishli sintaktik belgilari yo'q, uni ifodalashda ishtirok etuvchi birliklarning na morfologik, na leksik xususiyatlariga mutlaqo bog'liq emas, chunki ikkala morfologik. va taklif komponentlarining leksik xususiyatlari. Binobarin, inkor tahlilining sintaktik jihati faqat inkorning gapning tuzilmaviy organilishiga munosabatini tavsiflovchi hodisalarni tavsiflash bilan chegaralanib qolmaydi, unga morfologik va leksik jihatlar elementlari kiradi¹⁴.

Inkor kategoriyasini tahlil qilishning belgilangan chegaralari doirasida uning sintaktik xususiyatlarni aniq ifodalagan ma'lum ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Agar gapni ma'lum bir aktant-predikat tuzilishiga ega bo'lgan birlik deb hisoblasak, yapon tilida inkor gaplarning ikkita asosiy turi mavjud.

Birinchi turga umumiy inkor ifodalangan gaplar, ya'ni predikat atributining inkori kiradi; ikkinchisiga - muayyan inkorni, ya'ni sub'ektiv, ob'ektiv, atributiv belgining inkorini ifodalovchi gaplar.

Predikativ atributning inkori yapon tilida **ない** nai predikati yoki predikatning inkor shakli bilan belgilanadi, bu erda - **ん** n morf mavjud va uni quyidagi misollar bilan ko'rsatish mumkin:

これはほんじゃありません kore wa hon ja arimasen - "bu kitob emas"

ほんは えみません hon wa yomimasen - "Men kitob o'qimayman"

おかねは やらない okane va yaranai - "Men sizga pul bermayman" va boshqalar.

Keling, qisman inkor qilishni ko'rib chiqaylik. Subyektiv atributning inkori quyidagi misollar bilan ifodalanishi mumkin:

ほんを よんで いる ひとは やまださん じゃありませ hon o yonde iru hito wa Yamada san ja arimasen - "Kitob o'qiyotgan odam janob Yamada emas".

Ushbu jumjalarning umumiy xususiyati ularning hosila-nominal tuzilishidir: predmeti inkor qilingan predikat nomi nominal - sub'ektiv pozitsiyaga ko'chiriladi va so'z shaklida inkor morfini va so'zning nomini o'z ichiga oladi. predmet birikma nominal predikatning nominal komponenti pozitsiyasini egallaydi.

Ob'ekt belgisining inkorini gap orqali ko'rsatish mumkin:

わたしが よんで いるのは ほんじゃない watashi ga yonde iru no wa hon ja nai - "Men kitob o'qimayman".

Yapon tili sintaksisidagi inkorni quyidagi konstruksiyalarda ham kuzatish mumkin: ないでください naide kudasai - "iltimos, qilmang...", なくでも いいです nakutemo iide...". Bu konstruksiyalarda ない elementi salbiy ma'no keltiradi.

わたしは げんきですから、しんぱいしたいで ください watashi wa genki desu kara shinpai sinaide kudasai - "Men yaxshiman, iltimos, xavotir olmang";

ここで しゃしんを とらないで ください koko de shashin o toranaide kudasai - "iltimos, bu yerda suratga olmang";

あした こなくても いいです ashta konakute mo iidesu - "ertaga kelmasangiz ham mayli"

なければ なりません nakereba narimasen va なくては なりませ なりません nakute wa narimasen konstruksiyalarida qo'shaloq inkor "affi" bo'lgan konstruksiyaning transativ natijasidir. な on va ん n elementlari manfiy qiymatga ega, bu esa ijobiy qiymatga olib keladi. Zamonaviy yapon tilida bu konstruksiyalar harakat, xususiyat, narsa yoki shaxsning majburiyatini ifodalaydi.

よまなければなりません yomanakereba narimasen - "o'qish kerak"

がくせいでなければなりません gakusei de nakereba narimasen - "talaba bo'lishi kerak"¹⁵.

Ko'rib chiqilayotgan hodisalarning chetiga predikat inkor shakliga ega bo'lgan va sub'ekt yoki ob'ekt しか shika ko'rsatkichi bilan tuzilgan jumjalarni ham o'z ichiga olishi mumkin:

ほんしか えみません hon shika yomimasen - "Men faqat kitob o'qiyman";

ごはんしか たべません gohan shika tabemasen - "Men faqat guruch iste'mol qilaman."

Predikat va predmet yoki ob'ekt shakllarining barqaror o'zaro bog'liqligi gapning tasdiq ma'nosini yaratadi. Shu bilan birga, aniqlovchi komponent しか shika ko'rsatkichidir, chunki aynan u predmet yoki ob'ektning shakli sifatida predikatning inkor shaklini o'ziga xos tarzda belgilaydi, lekin hech qanday fikr bildirilmaydi: predikatning inkor shakli. しか shika indikatorining sub'ekt yoki ob'ekt bilan aniq mavjudligini oldindan belgilamaydi.

Xuddi shu turkumga ぜったい zettai komponentli, faqat predikatning inkor shakli yoki inkor implikativlari bilan birlashtirilgan jumla kiradi:

ぜったいに やるさない zettai yarusana - "mutlaqo ruxsat etilmaydi";

ぜったいに いかない zettai ikanai - Men umuman bormayman.

Biz bu maqola doirasida yapon tilini o'rganish jarayonida inkor gaplarning sintaktik xususiyatlari va ularni qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'rinlar va kategoriyalari haqida so'z

yurutdik va yapon tilida inkorni ifodalashning yetarlicha usullari mavjud. Ularni morfologik va leksiklarga bo'lish mumkin, ular o'z navbatida sintaktiklarni tashkil qiladi degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алпатов В.М., Вардуль И.Ф., Старостин С.А. Грамматика японского языка. Введение. Фонология. Супрафонология. Морфонология [Текст]. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2000. – 150 с.
2. Сыромятников Н.А. Классический японский язык [Текст]. – М.: Восточная литература РАН, 2002. – 152 с.
3. Японский глагол. Большой словарь-справочник [Текст]/Сост. А.А. Севостьянова. – М.: Живой язык, 2006. - 528 с.
4. 2000 Etsuko Tomomatsu, Jun Miyamoyo, Masako. Wakuri. Printed in Japan. - 240.
5. 1998 Minna no nihongo, 3A Corporation. Printed in Japan.
6. Etsuko Tomomatsu, Jun Miyamoyo, Masako. Wakuri. Printed in Japan, 2000. - p. 91
7. 小川巖“みんなのにはんご-II, 日本、2018.
8. “日本語文法入門”—アルク、2014.
9. “広辞苑”—岩波書店-2012. 6. “ミニことわざ辞典”—2013.

Erkinjonova Dilbarxon Dilmurodjonovna
1-year student
Tashkent pediatric medical institute
(Tashkent, Uzbekistan)

ZULFIYA ISRAILOVA'S WORK AND ROLE IN UZBEK LITERATURE

Эркинжонова Дилбархон Дилмуроджоновна
студентка 1 курса
Ташкентский педиатрический медицинский институт
(Ташкент, Узбекистан)

ТВОРЧЕСТВО И РОЛЬ ЗУЛЬФИИ ИСРАИЛОВОЙ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Zulfiya is one of the greatest representatives of Uzbek poetry of the 20th century. He left an important mark on the literature of the time with his deep philosophical, complex aspects of life, his unique lyrical works, epics and fiery publicist works that reflected the unique colors and emotions of man. Zulfiya's poetry is an intellectual and psychological poetry formed by a combination of deep thought and passion. The poet draws a flow of emotions, a scene of experience, a sharp dramatic state, as well as the most dramatic collisions. Zulfiya's poetry is spiritually rich, spiritually refreshing, and courageous. It covers a wide range of time and space. Reality and human destiny are reflected in harmony with yesterday, today and tomorrow. This is the significance and stability of the expression of the motives of "destiny", "people close to the heart", and "future" in the poet's lyrics. The high spirit in the poet's work, along with the tone of happiness, is due to the fact that he does not burn in the direction of tragedy, because he goes through the analysis of reality, time, man in a broad and holistic, with all its complexity.

Zulfiya sharia is an intellectual and psychological sharia formed in a combination of deep thought and hot emotion. The poet draws a flow of emotions, a scene of experience, a sharp dramatic state, and the tragic collisions at the peak of it. Zulfiya's poetry is spiritually rich, spiritually refreshing, and courageous. It covers a wide range of time and space. Reality and human destiny are reflected in harmony with yesterday, today and tomorrow. This is the significance and stability of the expression of the motives of "destiny", "people close to the heart", and "future" in the poet's lyrics. The high spirit in the poet's work, along with the melody of happiness, is due to the fact that he does not burn in the direction of tragedy, because he goes through the analysis of reality, time, man in a broad and holistic, with all its complexity. The poet's lyrical protagonist reacts equally to both the glorious conclusions of history and the bitter lessons. "My past is like a lesson in the alphabet," says the poet in the poem "Kelajak". In another poem, the poet writes:

What I write is about life,
The vibration of my human heart ul.

Here the poet points to two interconnected features of the lyrical protagonist. The creative principle, one of which begins with the poet's first collection, The Leaves of Life, is the closeness to life, to the human heart, that is, the search for a theme, an idea, an emotion, a

dream; the second is to express the thoughts and experiences that are born in the hearts of people as a result of this life, reality and the labor and struggle of people. In other words, the sounds coming from the strings of the poet's heart are the echoes of the outside world - the pulses of life - the heartbeat. Zulfiya's lyrics, "I don't want my poems to be limited to one topic," are truly vocal and colorful.

But the most central and abalone of these tones can be repeated - happiness, joy and hijrah, sadness. Zulfiya has another characteristic of her lyrical heroine. He cares about everything in life and the different moods in the human heart. He listens to them with a woman's heart, sees them with a woman's eyes, perceives them, describes them with a woman's words, sings in a woman's voice. No matter which of the poet's poems, the images in it are taken from the world of women, and the metaphors are woven from women's bis. It is true that the criteria for the ideological and artistic level of a work are the same for both poets and poetesses. But with the salient advantages, you must know some of the disadvantages as well. The hearts of poets are very delicate, tender, sensitive, restless, and restless and tolerant. They express the feeling of humanity as a child, the desire to preserve the motherland and its beauties like the apple of an eye, the readiness to embrace the future as a child, to save it. Every word from Zulfiya's pen, a clear image, is reflected in bright colors as the seal of the poet's heart.

During Hamid Olimjon's lifetime, the tone of hijra entered the poet's work. This melody played an important role in the poem "Hijran", in the epic "He was called Farhod", in the collection of poems "In the days of Hijran" edited and published by H.Olimjon. Zulfiya with a dream of eternal happiness rlar wrote. Each poem in the category rises to the level of an independent work. At the same time, it is inextricably linked with the content, direction and spirit. There are many series of poems of the poet, each of which shows a new side of the creative spiritual world. If in the series "Days of Hijrah" the victory of the soul suffering in the brutal flames of war is described, in "People close to my heart" the roots of this man's perseverance, devotion and optimism are seen in the love of people, love of motherland. The series "Mushoira" emphasizes the common destiny, concerns and aspirations of mankind. The series "Thoughts", "Years, years" focus on life and man, the meaning of life, love and devotion, the meaning of life and struggle.

It is important to identify the similarities and differences between the poems "On the Moon", "Where are you, my heart", "What happened to you", "Without you". All the works of the poet are characterized by the expressiveness of emotions and the naturalness of the experience. At the same time, in the poem "On the Moon" the tragic spirit was replaced by feelings of joy and wonder, and this situation required a special expression. At the end of the second hour, which is devoted to the study of Zulfiya's poems, information about the lyrics will be given. All of the poet's poems will also be re-analyzed and asked to be memorized. Provides information about the specificity of lyrical works based on the theoretical knowledge formed in previous classes about the types of fiction. Lyrical works are also in fact a reflection of reality. But in this type of work, reality is expressed through the author's emotions. In other words, lyrical works do not reflect the reality itself, but its impact on the author. For example, Zulfiya's poems, which depict Hijran songs, are not intended to describe the death of Hamid Alimjan, but to show what kind of experience that tragedy caused in the poet's heart and the extent of that experience. If time allows, the teacher can also give students an idea of the lyrical genres

of ghazal, rubai, tuyuk, marsiya and others. In his poems, he described migration, love, devotion, homeland, death, dawn, life, life, peace, the world, the joys and sorrows of his countrymen as his own pain. The poet's poems, in particular, are full of feminine, delicate and attractive emotions. Sincerity is strong in his poems. From the care of a loving mother to the preservation of the Motherland, universal ideas are at the forefront.

REFERENCES:

1. Salaev F.Kurbaniyozov G. Explanatory dictionary of literary terms.T. A new generation. 2010.
2. DTS. Journal of Language and Literature Education, 2008, No. 8.
3. Tokhliyev B. Methods of teaching literature. T. "New Age Generation". 2006.
4. Mirziyoyev Sh.M. Ensuring the rule of law and the interests of the people - a guarantee of development and prosperity of the country // "People's Word", December 8, 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader. - T.: Uzbekistan, 2017.

Ilimbayev Sardor
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi
(Tashkent, Uzbekistan)

**“SHUM BOLA” QISSASIDA O‘SPIRIN OBRAZINING SHAFQAT
VA HAMDARDLIK NEGIZIDA TASVIRLANISHI**

Annotatsiya. *G‘afur G‘ulom “Shum bola” qissasini salkam yigirma besh yil ishladi desa yanglish bo‘lmaydi. Qissaning birinchi va ikkinchi qismlari 1936-yilda yozib tugatilgan. Uchinchi qismi qirqinchi yillarning oxirida tugatilgan. Oltmishinchi yillarning boshlarida qayta tahrir qilingan. Qissa o‘tkir hajviy asar bo‘lib, haqiqiy voqealar va shaxslar taqdiriga asoslangan. Asar markazida yozuvchining hayotidan olingan ko‘p faktlar turgan bo‘lsa-da, u avtobiografik asar sanalmaydi. Unda haqiqiy tarixiy faktlarga nisbatan badiiy to‘qima, fantaziya kuchli desak ta‘bir joiz bo‘lmaydi.*

Kalit so‘zlar: *Sulton o‘g‘ri, o‘lik yuvish, Turobboy, Omon, o‘spirin obrazi, tovuq, Yo‘ldosh, Husni, Solih, Abdulla, Po‘latxo‘ja, Miraziz.*

Adib “Shum bola” qissasida ham birinchi jahon urushi kulfatini, chorizmning shafqatsiz zulmini ko‘rsatadi. Asar boshida o‘sha paytda Toshkentda sanog‘iga yetolmaydigan jinnilar paydo bo‘lgani ta‘kidlanadi. O‘sha adolatsiz, zo‘ravon tuzum kosiblar, hunarmandlar, savdogarlarni sindirib, jinni qilib qo‘yadi. G‘afur G‘ulom, masalan, “Juft kaptarga hukumatdan tekkan edi. Nikolay bormi, Kaufmani bormi, Mochalov bormi, o‘g‘ri degan mirshab bormi-hammasini bir qozon qilib, martabasining past-balandiga qaramay, sukaverar edi”, deb yozadi. Asar boshidagi bunday tasvir keyin chiziladigan turfa hayotning elchisi, debochasi edi. Keyin Shum bola sarguzashti bahonasida o‘sha fojiaiy hayotdagi inson holatini, uning axloqiy-ma‘naviy dunyosini, odamiyligi va mehr-shafqatini, hayvoniy qiyofasini haqqoniy ko‘rsatadi.

“Shum bola” avtobiografik asar emas. Qissada real, tarixiy aniq faktlar, voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan badiiy to‘qima, fantaziyaning salmog‘i ortiq. Shuning uchun qissa L. Tolstoyning “Bolalik”, “O‘smirlik”, M. Gorkiyning “Bolalik”, “Odamlar orasida” asarlariga o‘xshamaydi. Aslida, badiiy-avtobiografik asarda voqeaning yo‘nalishi, syujet chizig‘i, konflikt, personajlar soni va asar syujetida o‘ynaydigan roli shu asarga asos bo‘lgan shaxsning hayot yo‘li qanday bo‘lsa, shunday, chiziladi. Muallif hayot yo‘li qancha murakkab, boy va qizg‘in bo‘lsa, avtobiografik asar ham shuncha qiziqarli bo‘ladi.

“Shum bola” qissasidagi qahramonlarga xos “erkin”, “tashqi” avtobiografik belgilar ularni o‘z orqasidan ergashtirib ketmaydi: voqea mantig‘i xarakterlar mantig‘iga ko‘ra tug‘iladi va rivojlanadi. Qahramonlarning harakatlari, asar syujeti, konflikti hayot haqiqatiga mos keladi desak adashmagan bo‘lamiz. Qissada badiiy-avtobiografik asarlarga xos fazilatlar ham talaygina. Bosh qahramon va uning o‘ртоqlari tarixiy shaxslar, ular tug‘ilgan makon-ko‘cha, mahalla aniq. Hatto Shum bolaga G‘afur G‘ulom xarakterining ko‘pgina xislatlari singib ketgan. Asarda hayotning rang-barang, murakkab tomonlari, tarix harakati, xalq taqdiri ko‘rsatilgan. Biroq bular qahramonning dunyoqarashi, tushunchasi, kechinmasi nuqtai nazaridan yoritiladi. “Shum bola” qissasida ham voqelik shu shum bolalar taqdiri, nuqtai nazari orqali tasvirlanadi.

Shum bolalar hayot hodisalarini o'z yoshi, ongi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasidan kelib chiqib tushunadi, baholaydi. Kitobxon esa, hayotning ular qalb ko'zglasidagi in'ikosiga qarab turib, o'zicha xulosalar chiqaradi, yozuvchi niyatini tuyadi...

Qissa syujetiga xos sarguzashtlilik xususiyati, qahramonlarning mahallama-mahalla, qishloqma-qishloq kezib yurishlari o'z-o'zidan asarga ko'plab epizodik qahramonlar kirib kelishiga sabab bo'ladi. Avtobiografik asarlarda bu xususiyat asosiy va tabiiy holdir. Masalan: Sulton o'g'ri, o'lik yuvish voqeasida qatnashgan domulla, shum bola tomonidan so'yib qo'yilgan eshakning egasi, Shum bola xizmatida bo'lgan eshon va uning xotinlari, Sariboy oilasi kabi personajlar yo'l-yulakay paydo bo'lib, voqealar tizmasidan tushib qoladi. Bu xislati bilan "Shum bola" badiiy-avtobiografik asarlarga yaqin turadi. Biroq avtobiografik asarlardagi yo'l-yulakay asarga kiruvchi epizodlar va obrazlar xarakteri bir-biridan farq qiladi. "Shum bola"ga yangi-yangi voqealar va qahramonlarning kirib kelishi, bir tomondan, xarakterlar mantig'iga bog'liq. Xarakter mantig'i esa, ketma-ket kulgili vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

"Shum bola" – yumoristik asar. Yozuvchi asar boshidayoq yumoristik ruh yaratadi. Tuyg'u va kechinmalar tahliliga berilmaydi. U butun diqqatini xarakterlar mantig'i bilan tug'ilgan komik vaziyatni, komik voqea va detallarni tasvirlashga qaratadi. Bora-bora yumor satiraga o'tadi. Asarda satirik ruh kuchli. Bu bu yozuvchi shartlilik printsipiga keng murojaat etishining natijasidir. Bizningcha, anashu badiiy usul mantiqan asoslangan va u hayot haqiqatini ochish, xarakter yaratish uchun xizmat qilgan.

"Shum bola" qissasida G'afur G'ulom sodda, beg'ubor, ma'sum va musaffo tabiiy xislatlarga ega bo'lgan o'spirin obrazini yaratadi. Asar o'tkir hajv va dono yumor bilan ziynatlangan, yetim bolaning sarguzashtlari asosiga qurilgan. Asarda ma'lum darajada avtobiografik elementlar uchrasa-da, unda o'zbek bolalarining boshidan o'tkazgan sarguzashtlari hikoya qilinadi.

Mamlakatdagi notinchilik tufayli shaharda ishsizlik muammosi kelib chiqqan. Qissadagi Omon, It Obid, Bit Obid, Turobboy, Yo'ldosh, Husni, Solih, Abdulla, Po'latxo'ja, Miraziz singari bolalarning taqdiri bir- biriga o'xshash hisoblanadi desak yangilishmagan bo'lamiz. Omon onasidan, Yo'ldosh esa ota-onasidan, Shum bola otasidan ajralgan. Odamlarning kasb-korlariga diqqat qilinsa, pichoqchi, eski-tuski yig'uvchi, tikuvchi, ko'nchi, hofiz, g'ozafurush, kerosinfurush, mayda savdogarlik va hokazo. Shum bola tanigan mahalladoshlari, qo'ni-qo'shnilari bilan kitobxon shu tarzda tanishadi. E'tibor berilsa, Yo'ldosh "bari mog'orlab ketgan surp yaktak" kiyib olgan va boshqalarning ham ahvoli haminqadar. Shum bolalarning maydachuyda saqlanadigan uyi zax bosgan. Yog'lari kichkinagina ho'qchada saqlanadi. Hatto tovuqqa moyak o'rniga ham piyoz qo'yilgan. Shunga qaramasdan odamlarda mehr-shafqat, imyon, e'tiqod kabi insoniy tuyg'ular so'nmagan. Shum bolaning onasi obrazini olaylik. U bolasining boshiga xamir yoyib o'tirgan o'qlovi bilan "astagina" uradi. Chunki uning uchun o'choq boshi "Fotimai Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yer" bo'lib, bu joyni iflos qilish gunoh. Ona bolaginamning boshini yorib qo'ydimmi?-degan andishada esxonasi chiqib ketsa, Shum bola qo'rqish va uyatdan ko'chaga qochadi, hatto uyiga qaytib kelishga beti chidamaydi. Chunki yetimcha singillarining nasibasini ko'chaga tashmalash uyat ekanligini u yaxshi biladi. Biroq o'rtoqlari oldidagi hamiyatli bo'lishga intilish tuyg'usi uni shu yo'lga boshlagandi-da. Bechora onaizor butun qissa davomida Shum bolani sog'inch va intizorlik bilan kutadi. Do'sti Turobboyning tilidan bayon qilinishicha, u hatto o'g'lim o'lib qolgan bo'lsa-ya, deb aza

ochmoqchiyam bo'ladi. Shum bolaning uyga qaytmasligi bizningcha, uning mehri qattiq bolaligidan emas. Bu hol bir qarashda bu bolaning sayohatga o'chligidan, yangi-yangi sarguzashtlarga moyilligidan kelib chiqqanday tuyuladi. Biroq shu bilangina mazkur holatni izohlab bo'lmaydi. Ammasi va pochchasining erkalashlari, bolajonligi Shum bola qalbidagina emas, kitobxonda ham nihoyatda iliq taassurotlar uyg'otadi. Bu mehribonchilik bir jihatdan ularning o'ksik qalbi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan yetimparvarlik, qarindoshjonlilik bilan izohlanadi. Axir ularning nozik qalblari turfa gullargayu hayvonu parrandalargacha tizginsiz bir mehr mujassamlashgan emasmi? "Shum bola" qissasida mazkur tipdagi qahramonlar juda ko'p. Shum bola va Omondan to'rsiz gardish va bola beshikni olgan qozoq kampir hikoyachi "men" aytganiday "ko'r xaridor" emas. U o'z bolalarini bozorlik bilan siylamoqchi, qolaversa, shu yetimcha bolalarni-da xushnud etib, keraksiz matoh - gardishni ham sotib oladi. Har bir so'zida "qarog'im", "qaroqlarim", -deb og'zidan bol tomadigan bu mehribon va halol kampir shu bolalarni rozi qilib mollarini olishga ko'nadi. Qozoq kampirning iqtisodiy ahvoli ham maqtovga loyiq emas. U o'zi yetishtirgan ul-bul narsalar: tovuq, tuxum, so'k, qurut bilan oilaga zarur anjomlarni ayriboshlashining o'ziyoq bechoraholligini ko'rsatib turibdi. Chunki savdo qilishga naqd puli yo'q. Demak, o'lkadagi barcha millat vakillari ham moddiy muhtojlikda qo'l uchida umrguzaronlik qilishmoqda. Shunga qaramasdan, insoniy harorat, bolajonlilik, halollik, poklik, insof tuyg'ulari bilan ularning qalbi limmo-lim to'la ekanligi juda muhimdir. Qirg'iz kampir Yaxshiqiz xarakterida anchagina salbiy jihatlar bo'rtib ko'rinadi. Bechora kampirni turmush tashvishlari birmuncha hisob-kitoblik qilib qo'ygan bo'lib, u o'z tirikchiligi muammolari bilan hayot kechiradi. Biroq kampir insoniy xislatlardan, e'tiqoddan begona ham emas. Kampir yetimchalarga xayrli nazar bilan qaraydi, ularni andak ayab, yarim tanga evaziga tunash joyi ikkita chap-chap non bilan siylab, o'zlari olib kelgan tuxumlarni qovurib berishga rozi bo'ladi. "Allohning osmoni ham, yeri ham keng" ekanligi haqidagi kampirning sodda falsafasi zamirida uning e'tiqodiga xos jihatlar mujassamlashgan.

Atrofni qurshagan muhitga ko'nikib ketgan kampirida ham hali so'nmagan insoniy tuyg'ularni ko'rish uchun davr va odamlar hayotini teran bilish, maishiy holatlarning sabablarini tahlil eta olish, har bir qahramonning ruhiy olamidagi ko'z ilg'amas nozik jihatlarni mahorat bilan aks ettirish lozim edi. G'afur G'ulom mazkur mashaqqatli yumushni yuksak darajada uddalay oldi. Shum bola Sariboynikiga ilk borgan kuni olma yashiklaridan karovat, yog'och qirindisidan yostiq qilib yotishiga qaramasdan, mazza qilib uxlaydi. Chunki u hali ziqna boy bilan yuzlashmagan edi. O'ziga o'xshagan xizmatkorlarning mehr-shafqatidan, samimiy maslahatlaridan qoniqish hosil qilgan edi. Bir cho'mich go'jayu ikki burda jaydari non bir yetimning ko'nglini ovlashga, qornini to'ydirishga yetar ekan. Odamning odamga mehr-oqibat ko'rsatishi nahotki shunchalar mushkul bo'lsa? - deya ta'kidlayotganday tuyuladi G'afur G'ulom. Bunday o'rinlar Shum bolani darbadarlik va makonsizlik balosiga girifdor etgan muhit ustidan aybnomaday tuyuladi. Aksariyat, tadqiqotchilar qissadagi Omon obraziga birmuncha yotsirab qarashadi. Shum bolaning ayrim safarlarida yo'ldosh bo'lgan hamqishlog'i Omon taqdirini bosh qahramon qismatidan ajratish mumkinmi? Bunday yo'l tutishda nechog'lik asos bor. M. Amilova uning qiyofasida do'stga hiyonatni, boylikka o'chlikni ko'radi. Omonni Shum bolaga qarama-qarshi tarzda yaratilgan obraz deb hisoblaydi. H. Yoqubov esa uni ochiqdan-ochiq "so'tak", deb ta'riflaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Asosiy adabiyotlar:

1. G'. G'ulom. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar
3. G'afur G'ulom. Shum bola qissasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – T.: Fan, 1966 – B. 50
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom. – T.: Fan, 1986
6. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006
7. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
8. G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2003

Internet web-saytlar:

1. www.tadqiqot.uz
2. www.ziyo.net
3. www.arboblar.uz
4. www.tafakkur.net
5. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/adabiyot/g-afur-g-ulom>
6. <https://ziyo.edu.uz>

Luqmonova Shahrizoda
Student
Samarkand state institute of foreign languages
(Samarkand, Uzbekistan)

THE APPLICATION OF AUTHENTIC MATERIALS AS A MOTIVATIONAL TOOL IN ESL OR EFL CLASSROOMS

Abstract. *This study focuses on the need of incorporating real materials into ESL or EFL lessons in order to encourage students and significantly improve their English language abilities. This paper also discusses how English teachers should use accessible genuine resources in ESL or EFL courses to prepare students to study English in a completely different setting.*

Key words: *authentic materials, ESL, EFL classes, teaching, benefits, ways, accomplishment.*

Introduction

English is recognized as an international language, and the number of people who speak it is growing all over the world. Even yet, learning English has become a serious issue for ESL or EFL students who are having difficulty learning it in ESL or EFL lessons. There are various causes for this problem, one of which is a lack of enthusiasm in ESL or EFL schools. It is simply because ordinary textbooks are not written with the requirements and interests of ESL or EFL learners in mind. Because the majority of ESL or EFL students in English courses believe that the current content is dull and uninteresting, English teachers must devise an alternative method of satisfying them. Furthermore, English teachers should use new teaching tactics and motivate students to learn English. Introducing real content into ESL or EFL lessons appears to be the most effective way to encourage students. Thus, English teachers might include students in activities that take place in ESL or EFL courses. These events are also actively participated in by the students, who show a great deal of interest in them and perform admirably. As a result, the learners are driven to achieve the learning goal and study English in a pleasant and enjoyable setting.

There is a necessity to study English in this new millennium because it is utilized all over the world. Since the world has become a global village as a result of recent advances in science and technology, there is a need to study a language that is spoken all over the world. Even though the Chinese language, Mandarin, has the most speakers in the world (1.1 billion), it is limited to a single nation, namely China. Despite having the second biggest number of speakers (983 million), English is the language spoken in all states, nations, and continents across the world. It is no surprise that even the Chinese and Japanese are studying English in order to conduct successful worldwide business. English is recognized as an official language in 67 nations, including 27 non-sovereign countries. Furthermore, the majority of scientific study has been conducted in English. Furthermore, the bulk of literature at the higher education level are only available in English. It is the language of international correspondence and government

documents. Because English is so important in practically every subject, it must be taught at all levels of school.

With the advent of cutting-edge technology in the current age, we should expect a massive upheaval in all disciplines, including education. The introduction of technology has benefited the educational industry in a variety of ways. Almost all educational institutions are equipped with cutting-edge technology, and teaching and learning have undergone significant transformations. The Internet has been a huge benefit to both instructors and students since it allows them to access content that is important for their teaching and learning. The teachers utilize the internet to download vital instructional materials.

What exactly are authentic materials?

According to the Oxford Dictionary, the term "authentic" implies "recognized to be real and what someone claims it is and not a duplicate." The Cambridge dictionary defines genuine as "if anything is authentic, it is real, true, or what others think it is." The definition of authentic in the American dictionary is "being what it is said to be; genuine." So, authentic implies it is of undeniable origin, not a duplicate that is a real one. Now we'll talk about what authentic materials truly imply. According to some academics, "genuine materials" are reading texts that are typically authored by native speakers and published for a variety of purposes and situations that are specifically intended for the consumption of native speakers.

According to Herod (2002), "Authentic learning" "materials and activities" are designed to imitate the real world situations. Jacobson et al (2003) understands that authentic materials in the form of printed materials are used in the classrooms in the same way they would be used in real life. According to Cook, V. (1981), authentic materials are produced by native speakers to solve everyday situations, such as comics, newspaper articles, songs, with no didactic preparation, that motivate the learners as they are connected with situational and cultural content and reference. In these authentic materials, the topics, language and its structure and syntax are exactly pitched at the target audience of native speakers and offered through media intended primarily for native speakers. Some other researchers widened the definition of authentic materials and they have included TV programs, videos and some other sources of language or anything that stimulates language use.

The Benefits of Authentic Materials

Authentic materials have various advantages. The usage of real materials is solely in the hands of instructors, who always use them in the classrooms. When teachers utilize them appropriately for the setting and include them into their regular teaching materials, they will truly meet the requirements of their students. Simultaneously, the students will see the true rewards of their teachers' labor.

Teachers will be able to address the needs of their students if they employ real resources in their classrooms on a regular basis. Because employing real resources in the classroom is more vital for instructors to draw students' attention to their teaching subject, it is best for teachers to utilize them as supplemental material to enhance students' learning. It is now appropriate to explore the benefits of authentic content.

The following are the benefits of using authentic materials:

- They assist learners to bridge the gap between the classroom and the outside world.
- They help teachers motivate their learners.

- They add variety to the teachers' teaching.
- These materials are available everywhere.
- They are more useful in breaking monotony in the classroom.
- They help in bringing in the contemporary issues to the classroom.
- They are useful for teachers to adopt a lot of material that is related to the learners' needs.
- They are useful as effective teaching tools for the teachers.
- They are helpful for the learners to take part in the classroom discussions.
- They assist the teachers to make the learners more aware of the ongoing issues.
- Teachers can have more independency in selecting the material according to the content.
- Learners show more attention towards the topic taught in the classroom.
- Teachers can collect these authentic materials from various sources.
- They help in reinforcing the normal learning styles of the learners.

Conclusion

The significance of real materials as a motivational aid in ESL or EFL courses has been fully examined in this work. First and foremost, the significance of technology in education has been considered for this reason. The concept of genuine materials is then clearly stated. Following that, many sources of authentic materials and studies on authentic materials were thoroughly discussed. Later, the usage of real materials at all levels was expressly stated. Furthermore, the benefits of genuine resources and how they are used authentically in ESL or EFL courses have been extensively explained. Furthermore, the use of real materials as a motivational aid in ESL or EFL courses has been thoroughly discussed. Finally, some helpful hints have been provided to English teachers and students on how to properly use these real resources in ESL or EFL courses.

Because genuine resources may help English language teachers improve their teaching effectiveness, they should utilize them with their students in ESL or EFL classes on a regular and suitable basis. Teachers may do miracles in their ESL or EFL classes by using real resources. As a consequence, the learners acquire the language in a very natural way and enhance their language abilities to the greatest extent possible.

REFERENCES:

1. Akbari, O. (2015). Using authentic materials in the foreign language classrooms: Teachers' perspectives in EFL classes. Retrieved January 6, 2016, from www.consortiacademia.org/index.php/ijrse/article/download/1189/538
2. Breen, M.P. (1985). Authenticity in the language classroom. *Applied Linguistics*, 6, 60–70
3. Herod, L. (2002). *Adult Learning from Theory to Practice*. Heinle and Heinle Publishers. Heinemann.
4. Kilickaya, F. (2004). Authentic Materials and Culture Content in EFL Classrooms. *The Internet ELT Journal*, 10(7).
5. Nunan, D. (1988). *The Learner-centered Curriculum*. Cambridge: Cambridge University Press.

Najimova Umida Mamarajabovna
“Sharq tillari” fakulteti magistranti
Samarqand davlat chet tillar instituti
(Samarqand, Uzbekistan)

YAPON TILINI INOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAO‘QITISH USULLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada yapon tilini o‘qitishning turli innovatsion texnologiyalari va talabalarning bilim sifatini oshirish, ularning intellektual va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *“So‘z yarat”, “Uchinchi qo‘shimcha”, “Tarjimon”, “Erudit”, “Maqol to‘pla”, “Chiziq”, “O‘zgartirish”, “So‘z to‘ri”*

Bugungi kunda jahonning yetakchi ta‘lim muassasalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrda oliy ta‘lim: yondashuvlar va amaliy choralar” Butunjahon Deklaratsiyasi doirasida chet tili o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish, ta‘sil oluvchilarning ijtimoiy-lingvistik bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, til o‘rgnaish malakalarini uzluksiz oshirishning nazariy asoslarini rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yapon tilini va tilning konstruksialar tizimining shakllanishi hamda o‘rgatishninginovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish usullari alohida tadqiq etish bugungi kun oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yapon tilini o‘qitishning turli innovatsion texnologiyalari va talabalarning bilim sifatini oshirish, ularning intellektual va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqida so‘z borganda biz ikkita strategiya guruh haqida gapirishimiz mumkin: o‘rganishga bevosita ta‘sir qiladigan va o‘rganishga yordam beradiganlar.

Birinchisi quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: o‘quvchilar tomonidan materialni idrok etishda qo‘llaniladigan kognitiv strategiyalar, yodlash strategiyalari - uni xotirada saqlash, kompensatsion strategiyalar - muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Ikkinchisi orasida o‘rganish uchun sharoit yaratish va tilni o‘zlashtirishdagi psixologik qiyinchiliklarni engishga yordam berish bilan bog‘liq strategiyalar mavjud.

Innovatsion ta‘limning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- egri chiziqdan oldin ishlash, rivojlanishni kutish;
- kelajakka ochiqlik;
- shaxsga, uning rivojlanishiga e‘tibor berish;
- ijodkorlik elementlarining majburiy mavjudligi;
- munosabatlarning sheriklik turi: hamkorlik, birgalikda yaratish, o‘zaro yordam va boshqalar.

Ta‘limdagi innovatsiyalar – ta‘lim mazmuni, o‘qitishning shakl va uslublari, “o‘qituvchi-shogird” munosabatidagi innovatsiyalar, yangiliklar, ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanish, yangi texnika vositalarini joriy etish, o‘quv jarayonini tashkil etish. jarayon, uni boshqarish va boshqalar.

Darsda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun istiqbolli uslubiy usullardan foydalanish kerak: klasterlar, insert (nazariy materialni mustaqil o'rganish bilan), jadvallarni to'ldirish, ikki qismli kundalik, to'xtash joylari bilan o'qish, birgalikda izlash, o'zaro muhokama, davra stoli; TRIZ elementlarini qo'llash (ixtirochilik muammolarini hal qilish texnologiyalari): "Ajablanish!" (yozuvchining tarjimai holi bilan tanishishda), "Xatoni qo'lga oling!".

Yapon tili va adabiyotiga qiziqishni rivojlantirish uchun bolalarni qiziqtiradigan tarixiy, etimologik ma'lumotlar darsga kiritilishi kerak, ishning o'yin shakllarini o'tkazish kerak: "So'z yarat", "Uchinchi qo'shimcha", "Tarjimon", "Erudit", "Maqol to'pla", "Chiziq", "O'zgartirish", "So'z to'ri" va hokazolarda ijodiy tajribalar, loyiha usuli, nostandart darslar, tanlovlar, olimpiadalardan foydalanish.

An'anaviy va innovatsion o'qitish usullari doimiy aloqada bo'lishi va bir-birini to'ldirishi zarur. Bu ikki tushuncha bir xil darajada mavjud bo'lishi kerak.

Muhokama - nutqning eng murakkab shakllaridan biri bo'lib, u bolalarga o'z fikrlarini ifoda etishga yordam beradigan nutq markalari bilan oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bu metod adabiyot darslarida badiiy asarni muhokama qilish va tahlil qilishda ayniqsa samaralidir. Guruh muhokamasidan muammo bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalanish mumkin.

Zamonaviy ("axborot") jamiyatda jadal rivojlanayotgan va talabalar tomonidan katta qiziqish uyg'otadigan usullardan biri bu Internet resurslaridan ta'limga innovatsion yondashuv sifatida foydalanishdir. Bundan tashqari, birinchi holda, uning vazifasi birlamchi ma'lumot almashish, qarama-qarshiliklarni aniqlash, ikkinchidan, olingan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish, muammoga nisbatan o'z qarashlarini boshqa qarashlar va pozitsiyalar bilan taqqoslash imkoniyatidir. Guruh muhokamasining shakli dialogik muloqotni rivojlantirishga, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Yapon tili darsining zamonaviy talablaridan biri matn bilan ishlashdir. "Dars - tadqiqot" nomining o'zida asosiy vazifa ko'rinadi - matnlr asosida til materialini o'rganiladi. Asosiy, bolalarning darsda zerikishi uchun vaqt yo'q, shuning uchun ular ishlashni, o'qishni xohlaydilar va yapon tilini inovatsion texnologiyalar asosida o'qitish usullari qo'llaniladigan bunday darslarda yapon tiliga ijodiy munosabat shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Митусова О.А. Лингвистический компонент модели современного специалиста // Строительство-2001: Материалы междунар. научно-практической конф. Ростов-на-Дону: РГСУ, 2003. С. 114-118.
2. Булатова Д.В. Иностраный язык как средство профессиональной подготовки студентов неязыковых вузов // Профессиональное образование. - 1996, - №1. - С. 78-83.
3. Г.В. Рогова, Ф.М. Рабинович, Т.Е. Сахарова. М.: Просвещение//Методика обучения иностранным языкам в средней школе /, 1991. 287 с.
4. Под ред. И.Я. Лернера, И.К. Журавлева. М.: Современная дидактика: Теория и практика // ИТПИ МИО РАО, 1994. 288 с.

5. Пассов Е. И. Основные вопросы обучения иностранной речи. Воронеж: Воронежский государственный педагогический институт, 1976. 163 с.
6. Куклев В. А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании: автореф. дис ... д-ра пед. наук: 13.00.01 – общая педагогика, история педагогики и образования; Ульяновский государственный технический университет. Ульяновск, 2010. 46 с.

Баёнханова Ирода Фуркатовна
Самарқамд Давлат Чет Тиллар Институту
Узоқ Шарқ тиллари кафедраси Катта ўқитувчиси
(Самарқамд, Ўзбекистон)

КОРЕЙС ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ПАРЕМИОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ҚИЁСЛАБ ЎРГАНИШИ

Калит сўзлар: Мақол, паремиология, паремиялар, фраземалар ва паремалар, корейс ва ўзбек тилларининг паремиологияси, истиора, ташбеҳ, метафора, таққослаш (антитеза), параллелизм, анафора, қофиялаш, эвфоник воситалар (аллитерация, ассонанс), киноя, ҳикматли иборалар, *한국어 속담, 관용적 표현, 중의적 표현, 직접적 표현, 동음어, 다의어, 단의어.*

Баёнханова Ирода Фуркатовна
Старший преподаватель кафедры дальневосточных языков
Самаркандский государственный институт иностранных языков
(Самарканд, Узбекистан)

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ КОРЕЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. В статье речь идет о паремиологии узбекского и корейского языков, проводится сопоставительный анализ пословиц в этих языках. Такие понятия, как отношение, обращение, диалог, дискуссия, преуважение, дискуссия, рассуждение-все это о украшениях, которые соответствуют украшениям определенной нации, то есть узбеков и корейцев, и которые во многом определяются этическими и эстетическими нормами и правилами. В статье говорится, что любовь к человеческому языку, любовь к нему, искренние пожелания почитаются и поддерживаются в литературе Ближнего Востока. Причина в том, что в мире есть наука, которая всегда была главной темой литературы. Это человеческая наука. И первопричиной этой науки является поиск пути к человеческому языку. И Наука, и духовная культура, и искусство всегда кланялись этому.

Ключевые слова: Пословицы, паремиология, паремии, словосочетания и паремы, паремиология корейского и узбекского языков, коммуникация, культура поведения, манеры поведения, речевая деятельность, путь к сердцу, взаимопонимание, боязнь слова, основа воспитания, *한국어 속담, 관용적 표현, 중의적 표현, 직접적 표현, 동음어, 다의어, 단의어.*

Қарама-қарши ва панд-насиҳатни ифодалашга асосланган мақоллар корейс ва ўзбек тилида паремиологик бирликларнинг катта қисмини ташкил қилади. Қиёсий тилшунослиқда оламнинг лисоний манзарасини дунё тилларидаги паремиологик бирликлар орқали қиёслаб ўрганилиши, бу борадаги лексик-семантик, структурал ўзига хосликлар тадқиқотига бағишланган изланишлар жуда кўплигига қарамасдан, бу муаммо

корейс ва ўзбек тиллари мисолида кенг ва атрофлича ўрганилмаганлигини таъкидлаш жоиз. Бу мавзунинг долзарблигидан, ҳар иккала тилдаги паремиологик бирликларнинг структур тузилишларини, семантикасини ва тилда бажарадиган функцияларини атрофлича ва чуқур ўрганиш заруратини тақоза қилади.

Шу нуктаи назардан ушбу мақоламизда корейс ва ўзбек тилларидаги қарама-қарши ва панд-насиҳатни ифодалашга асосланган мақолларни лексик-семантик ва прагматик аспектда таҳлил қилиб ўрганишни, бу жараёнда қуйидаги вазифаларни йечишни мақсад қилиб қўйдик:

- 1) тилшунослиқда паремиологик бирлик тушунчасининг моҳиятини аниқлаш;
- 2) паремияларнинг лисоний бирликларнинг алоҳида синфи сифатида ўрганилишининг назарий муаммоларини аниқлаш;
- 3) корейс ва ўзбек тилларидаги қарама-қарши ва панд-насиҳатни ифодалашга асосланган мақоллардаги унвесалликни, структурал-семантик тузилишларидаги фарқларни аниқлаш.

Одатда фольклор ҳақида гапирганимизда у орқали ифодаланадиган фикр универсал характерда бўлишлигини яхши биламиз. Бундай унвесаллик, яъни дунё тилларига хос умумий маъно ифодалаш хусусияти айнан паремияларга ҳам хос. Тилшунослиқда юнонча «paragimía» сўзи бизнинг тилимизда мақол, матал маъносига қўлланилади. Ҳар қандай тилдаги паремиологик бирликлар ўз семантикасида муайян бир ҳалқнинг узоқ давом этган маданий-тарихий тараққиётини акс эттиради. Улар орқали турлича маданий қадриятлар, стереотиплар тилда мустаҳкамланиб, авлодлардан авлодларга кўчади. Паремилогик бирликлар орқали тилда мустаҳкам ўрин олган тушунчалардаги образлар системаси шу ҳалқнинг оламни лисоний тасаввурини ҳосил қилади, чунки улар у ёки бу даражада шу лисоний коллективнинг моддий, маънавий, маданий, миллий ва ижтимоий тажрибаси натижасида вужудга келадик, уларда айнан ана шу маданий -миллий тажриба ва аънаналар ўз ифодасини топади.

Мақоллар тугалланган фикрни бевосита ифодалайди. Мақоллар тузилишига кўра содда ва мураккаб паремаларга бўлинади. Мақоллар тузилиши жиҳатидан энг ками икки элементдан (гап бўлагидан) иборат бўлади ва тугалланган фикр билдиради. Бу фикрни билдирувчи гап бўлаклари, одатда, бош бўлақлар бўлади, лекин бош бўлақлар: эга ёки кесим бўлиши паремада икки элементдан (гап бўлаги) бўлиши ва улар икки интонацион марказга мумкин. Бош бўлақларнинг бўлиши ёки бўлмаслигига қарамасдан, ҳар бир бўлиниши шарт. Мақолларни энг ками икки мантиқий марказ ҳосил қилади. Бу мантиқий марказни ташкил қилувчи сўзлар бош бўлақ вазифасида келиши ҳам келмаслиги ҳам мумкин. Содда паремалар икки ва ундан ортиқ элементлардан (гап бўлақларидан) иборат бўлади. Мураккаб паремалар эса икки ва ундан ортиқ компонентлардан (қўшма гаплар таркибига кирувчи нисбий содда гапларни билдирувчи термин) ташкил топади. Демак, мақоллар гап бўлақларидан иборат бўлиб, тугалланган фикрни ифодалайди ва мақоллар тугалланган гап шаклида бўлганлиги учун улар фақат кенгайтирилган гаплар орқали изоҳланади. (*Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати*. А. Хожиев. – Т: 1985, 54-б.)

Ҳозирги замон тилшунослигида паремиологик бирликларнинг лисоний статусини, лингвистик характеристикасини белгилловчи, барча тилшунослар томонидан тан олинган қуйидаги назарий ҳолатлар мавжуд:

1. Паремиологик бирликлар гап (жумла)га ўхшаш конструкцияларнинг алоҳида кўриниши бўлиб, модаллик, шахс категорияси, замоннинг синтактик усулда ифодаланиши, қандайдир фикрни тасдиқлаб, унга қарама қарши улароқ, қандайдир фикрни инкор қилишга асосланган предикатив категорияларга эгадирлар. Паремиологик бирликларнинг бундай хусусиятлари одатда тилдаги номинатив лексик-синтактик бирликларга, шунингдек, тор маънодаги фразеологик бирликларга қарама-қарши қўйилиб тадқиқ қилинади [Виноградов1977: 250].

2. Паремиологик конструкциялар одатдаги тугал фикр ифодаловчи жумлалар сингари предикатив бирликларнинг муайян структур схемаси асосида тузилади. (Потебня 1989: 155]

Мақоламизда биз *паремиологик бирлик* атамасини нутқ жараёнида панд-насиҳат маъносида қўлланиладиган, структур жиҳатдан гапга тенг келадиган, семантик жиҳатдан халқ турмуш тарзининг маданий-маиший баҳоловчи бирликлар сифатида тушунамиз. Премиологик бирликларнинг асосий типларини аниқлаш учун даставвал уларнинг алоҳида ажралиб турувчи лисоний белгиларини аниқлаш зарур. Г.Л. Пермяков бу белгиларнинг қуйидаги типларга бўлиб ўрганишни таклиф қилади: [Пермяков1970: 15]

1. Бирлик ифодалайдиган маъно ва шаклнинг турғунлиги: **불난집에부채질한다** - Сўзма сўз: *Ёнаётган уйни елпиш*. Мақолнинг ўзбек тилидаги эквивалентида семантик адекватлик мавжуд бўлсада, оламнинг лисоний тасаввури бу ўринда турлича объектлар орқали тасаввур қилинишини кузатамиз: *Оловга ёғ сепиш ёки ярага туз сепиш*;

2. Образлилик: **호랑이도چه말하면온다**.-Сўзма сўз: *Йўлбарс гапираётган вақтингда келади*. Бу ўринда ҳам умумий маъно бир хил бўлсада, образлилик ҳар иккала тилда турлича ҳайвонлар номи билан ифодаданганлигини кўрамыз: *Бўрини гапирсанг, қулоғи кўринади*.

3. Панд-насиҳат (тарбиявий) маънода қўлланилиши: **가는말이고와야오는말이곱다**. - Сўзма сўз: *Айтилган сўз чиройли бўлса, жавоб сўз ҳам чиройли бўлади*. Бу ўринда мақолнинг ўзбек тилидаги эквивалентида умумий маъно сақлангани ҳолда образлилик “салом” сўзи билан ифодаланади: *Саломга яраша алик ёки аввал салом, бағаз калом*.

4. Ифодаланаётган семантик маънонинг прагматик характерда, яъни фон билимларга асосланиб, билвосита ифодаланиши. Бундай мақоллар ҳар иккала тилда ҳам жуда кўпчиликни ташкил қилади ва ўзбек тилидаги эквивалентларининг кўп вариантлилиги билан характерланади:

